



**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING
YANGI O‘ZBEKISTON
RIVOJIGA TA’SIRI**

Xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiyasi to'plami

21 IYUN

2023





**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YANGI O'ZBEKISTON
RIVOJIGA TA'SIRI**

**ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗВИТИЕ
НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE DEVELOPMENT
OF NEW UZBEKISTAN**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami



JUNE 21, 2023
KOKAND UNIVERSITY

"O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublika Prezidentining 5847-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuklarini amaliyotga joriy etish yo'li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya'ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e'tirof etilishiga xizmat qilishdir. Shu va boshqa tegishli farmonlarda va qarorlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirish maqsadida 2023 yil 21-iyun kuni Qo'qon universiteti "Raqamli texnologiyalar va matematika" kafedrası "Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri" mavzusidagi xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plamini e'lon qiladi



MAS'UL MUHARRIR

Zahidov G'ofurjon Erkinovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIRIYAT HAY'ATI

G'ulomov Saidahrur Saidahmedovich – iqtisodiyot fanlari doktori, akademik;

Ahmedov Durbek Quدراتillayevich - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Mahmudov Nosir Mahmudovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Butaboyev Muhammadjon - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Islamov Anvar Ashirkulovich - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent;

Ruziev Shohrusbek Ravshan o'g'li - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mulaydinov Farxod Murotovich – Qo'qon universiteti, Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrası mudiri

Texnik muharrir – Solidjonov Dilyorjon Zoirjon o'g'li



Ta'lim sifati yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili / Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami. Kokand university, 2023 yil 21 iyun, - «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2023.

© Matn. Mualliflar, 2023.

© Kokand university, 2023.

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», original maket, 2023.

18	KITOB VA KITOBXONLIK – INSON MA'NAVIYATINING KO'ZGUSI - Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li, Nematova Guljahon Shuxratjon qizi	83-85
19	TA'LIM SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI - Batirov Behzod Barotovich	86-88
20	ELEKTRON DARSLIKLAR YARATISH TEXNOLOGIYALARI - Xoldarboyev Rahimjon Axmatdjanovich, Abduvaxobova Robiyaxon Abdusamat qizi	89-91
21	INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI - Nasirova Shaira Narmuradovna, Yodgorov G'ayrat Ro'ziyevich, Raximov Nodirbek Sharif o'g'li	92-94
22	OLIY TA'LIMDA ELEKTRON TA'LIM RESURLARINI FOYDADANISHNING AHAMIYATI - Nasirova Shaira Narmuradovna	95-96
23	ELEKTRON TA'LIM RESURLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI - Qo'chqorova Surmaxon Suvonovna, Yodgorov G'ayrat Ro'ziyevich, Nasirova Shaira Narmuradovna	97-99
24	TA'LIMGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH TIZIMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI - Yodgorov G'ayrat Ro'ziyevich, Qo'chqorova Surmaxon Suvonovna, Nasirova Shaira Narmuradovna	100-102
25	MATEMATIKA DARSLARINI TASHKILLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH - Azimova Toyibaxon Elmurodjon qizi	103-104
26	ТЕКИСЛИҚДА БЕРИЛГАН ЭЛЛИПСЛАР МИНКОВСКИЙ АЙИРМАСИ - Жалолхон Нуритдинов Турсунбой ўғли	105-113
27	TEACHING PHYSICS BASED ON MODERN TECHNOLOGIES - Adashaliyeva Feruzabonu	114-116
28	TA'LIM VA TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH - Kamolaxon Oripova Erkinjon qizi	117-120
29	ZAMONAVIY YOSHLAR QADRIYATLARI VA JAMIYAT BOSHQARUVI - Mulyadinov Farhod Murotovich, Keldiboyeva Zumradxon Mirolim qizi	121-127
30	TA'LIM VA TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BOLALARNING SOG'LIG'IGA ZARAR YETKAZUVCHI AXBOROTLARDAN HIMOYA QILISH - SH. F. Ulug'xo'jayeva	128-132
31	BOG'LIQSIZ TASODIFIY MIQDORLAR YIG'INDISINING XARAKTRISTIK FUNKSIYASI - Jovliyev Aziz Ismanqul o'g'li	133-134
32	ZAMONAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA VR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI - G'aniyeva Shaxrizod Nurmaxamadovna	135-137
33	TA'LIM VA TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING MUAMMO VA YICHIMLARI - Dilfuza Muydinova	138-141
34	MATEMATIK MODELLARNING TIBBIYOT SOHASIDAGI BA'ZI QO'LLANILISHI - Eshtemirov Eshtemir Salim O'g'li, Abdurashidov Nuriddin G'iyosiddin O'g'li	142-148
35	МАКТАВГАЧА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYLARDAN FOYDALANIB SAMARALI MASHG'ULOT O'TISHNING AVFZALIKLARI - Yo'ldashev Axrorjon	149-150
36	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ КУРСА "ЧИСЛОВОЕ И ПРОГРАММНОЕ УПРАВЛЕНИЕ" - О.Э. Кушматов	151
37	TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI - Siddiqov Ilhomjon Meliqo'ziyevich	152-155

**TA'LIM VA TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI
QO'LLASHNING MUAMMO VA YICHIMLARI****Dilfuza Muydinova**

O'zMU ijtimoiy fanlar fakulteti, ijtimoiy gumanitar fanlarni

o'qitish metodikasi yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi axborot va texnologiyalar rivojlangan davrda ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, qo'llashning hozirgi kundagi muammo va yechimlari hamda mamlakatimizdagi ta'limga qaratilgan yuksak e'tibor davrida yoshlar ong va shuurida axborot iste'moli madaniyatini yanada oshirish to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya raqamli texnologiya, muammo, yechim, innovatsiya, muloqot, madaniyat.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning borishi bevosita ta'lim tizimiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham ta'limning barcha bo'g'inlarida yanada yuqori samaradorlikka erishish maqsadida sohada keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish, xalqaro tajribalar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, har bir sohaning taraqqiyoti aynan, shu soha vakillari yoki mutaxassislarining bilimi, idroki, tafakkuri va malakasi hamda shu yo'nalishdagi rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini qanchalik o'zlashtirganligi bilan belgilanadi.

So'nggi yillarda yurtimizda ko'plab sohalardagi rivojlanish jadal suratlarda taraqqiy etmoqda. Hususan ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar jamiyat, davlat ravnaqi uchun qo'yilayotgan eng muxim qadamlardan biri sanaladi. Bu esa ta'limni qaytadan isloh qilish va uning ichidagi muammolarni o'rganish, keng ko'lamda tadqiq etishni taqazo etmoqda. Respublikamizning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi, xalqimizning rivojlangan mamlakatlar bilan teng huquqli munosabatlar o'rnatishi jahon standartlariga mos ilmni egallagan, aqlan va jismonan yetuk shaxslarni tarbiyalash zaruratini vujudga keltirmoqda. Bugungi kun taraqqiyoti fan va texnika yutuqlari yosh avlodni jahon talablari darajasidagi intellekt egasi bo'lishi va yuqori saviyada mustaqil fikrlovchi hamda ijodkor yoshlarni kamol toptirishni taqazo etmoqda. Bu borada hozirgi kunda dunyodagi ta'lim rivojlangan davlatlar bilan ko'plab hamkorlik ishlari olib borilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlashicha, ta'lim sohasida qilish kerak bo'lgan ishlar ko'p: "Darsliklar masalasida ham ancha muammo borligi uning ichiga kirgach bilindi. Ularning saviyasi haqida katta muhokamalar bo'ldi. Finlandiya standarti bilan 1-4 sinflar uchun qiladigan bo'ldik. Finlandiya xalq ta'limi Yevropa miqyosida, umuman, dunyoda raqobatbardosh hisoblanadi", - deydi Shavkat

Miromonovich Mirziyoyev. Bundan tashqari davlatimiz rahbari yaqindagina O'zbekistonga tashrif buyurgan Singapur Prezidenti Halima Yoqub bilan ham ko'plab sohalarda va aynan ta'lim sohasida hamkorlik qilishga kelishib oldilar.

Singapur dunyoda eng taraqqiy etgan davlatlar qatorida e'tirof etilmoqda. Ushbu davlatda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar o'zining quvonarli natijalarini bera boshlagan. Ayniqsa ta'lim sohasida amalga oshirilgan ishlar va erishilayotgan yutuqlar dunyo miqyosida e'tirof etilmoqda. Singapurda innovatsiya va texnologiyalar sohasidagi muayyan yutuqlar havas qilsa arzigulikdir.

Ma'lumki, jamiyatda ta'limning izchilligini ta'minlash, sohaga innovatsion texnologiyalar hamda milliy va xalqaro pedagogic tajribalarni qo'llash orqali yoshlarimizda teran fasafiy tafakkur, ilmiy mushohadalarga chorlovchi g'oyalar asosida mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllanishiga xizmat qiladigan shart-sharoitlarni yaratib berilganligi bilan bog'liqdir. Buning uchun, ta'lim tizimida o'zaro aloqadorlik, integratsiyani ta'minlash va tizimining barcha sohalarida nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadigan jarayonlarga yanada kengroq e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini yangilash va takomillashtirishga qaratilgan izchil islohotlar olib borilayotgan ekan, bunday islohotlar zamirida rivojlanayotgan ta'limning oldiga ham muhim vazifalarni yuklash albatta taabiiy. Bu borada pedagog olim M.M.Xolmuxammedov o'zining "Professional ta'lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish" mavzusidagi maqolasida: "Tizim o'z oldiga hududlar va sohalar kesimida iqtisodiy yuksalishga munosib hissa qo'sha oladigan o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash, yoshlarni malakali mehnat orqali o'z hayot farovonligini ta'minlashga o'rgatish, o'z mehnat faoliyatiga innovatsion va keriativ yondashish, yaratuvchanlik, intellektual, ma'naviy potensialni rivojlantirish kabi vazifalarni qo'yadi", -deb yozadi[1].

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan: "...mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish;

➤ dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

➤ ta'lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o'qituvchilari va ilm-fan sohalarini vakillarining jamiyatimizdagi o'rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag'batlantirish;

- pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini “hayot davomida o`qish” tamoyili asosida takomillashtirib borish;
- ilmiy-tadqiqot va ta`lim xizmatlarini ko`rsatish bo`yicha xususiy sektorning salmog`ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta`lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta`lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo`llagan xolda ta`limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta`limni yanada rivojlantirish, ta`lim oluvchilar o`rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;
- ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko`lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag`batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;
- ta`lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta`lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo`yicha tizimli ishlarni amalga oshirish”,[2] kabi O`zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta`lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini yanada rivojlantirishning asosiy yo`nalishlari belgilab berildi.

Mamlakatimizning yangi taraqqiyoti davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo`llash orqali ta`limni boshqarishni avtomatlashtirish, elektron resurslar va masofaviy ta`limni yanada rivojlantirish, ta`lim oluvchilar o`rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirishga davlatimiz rahbari tomonidan alohida e`tibor qaratilayotganligi, ta`lim tizimida ham raqamli texnologiyalarning o`rni va ahamiyati qanchalik yuqori ekanligini ko`rsatib bermoqda.

Bugungi globallashtirish jarayoni kechayotgan davrda, kundalik hayotimizni axborot-kommunikatsion texnologiyalari, kompyuterlar va Internetsiz tasavvur qilish mushkuldir. Shuning uchun ham bugungi kunda raqamli texnologiyalar asta sekin kundalik hayotimizning barcha sohaslariga kirib, ijtimoiy hayotning ajralmas bir qismiga aylanib bormoqda. Aynan, ana shu muhim jihatni hisobga olgan xolda mamlakatimizda 10 dan ortiq texnika va raqamli texnologiyalar yo`nalishidagi mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o`quv yurtlari faoliyatini yo`lga qo`yilganligi ham raqamli texnologiyalarning nafaqat iqtisodiyot, siyosat kabi sohalarda balki, ta`lim tizimida ham katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir.

2020-yil Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur vas hart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo`lidan borish imkoniyatini beradi”,[3]-deya ta`kidlaganlari mamlakatimizda faqat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda tub burulish yasash, balki raqamli texnologiyalarni ijtimoiy hayotning barcha sohaslariga, jumladan, ta`lim tizimiga ham joriy etishni nazarda tutgan bo`lsalar ajab emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.M.Xolmuxammedov. "Professional ta'lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish". Uzluksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnal. 2021. 6-son. 3-4-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси, Халқ сўзи 2020 йил 25 январь.